

MA'NAVIYAT – SHAXS XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA PSIXOLOGIK HIMOYALASHNING XXI ASRDAGI «DRAYVER» VOSITASI

Oybek Eshboyevich Hayitov

psixologiya fanlari doktori, professor, Oriental universitet

ANNOTATSIYA

Maqolada XXI asrda shaxs xavfsizligini ta'minlash va uni psixologik himoyalashdagi asosiy «drayver» vosita sifatida ma'naviyat dalillangan. Shuningdek, ma'naviyatni shakllantirish – Yangi O'zbekiston yoshlarining axborot psixologik xavfsizligini ta'minlashdagi eng ta'sirchan usul sifatida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, konsepsiya, shaxs, globallashuv, axborot xavfsizligi, axborot psixologik xavfsizlik, shaxs xavfsizligi.

АННОТАЦИЯ

В статье духовность доказывается как главный «драйверный» инструмент обеспечения личной безопасности и психологической защиты в XXI веке. Также формирование духовности описывается как наиболее эффективный способ обеспечения информационной и психологической безопасности молодежи Нового Узбекистана.

Ключевые слова: духовность, концепция, человек, глобализация, информационная безопасность, информационная психологическая безопасность, безопасность личности.

ABSTRACT

The article proves spirituality as the main «driver» tool for ensuring personal safety and psychological protection in the 21st century. Also, the formation of spirituality is described as the most effective way to ensure the information and psychological security of the youth of New Uzbekistan.

Keywords: spirituality, concept, human, globalization, information security, information psychological security, personal security.

KIRISH

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini «Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish orqali butun jamiyatimiz bo'ylab konstruktiv dunyoqarashni umummilliy

harakatga aylantirish oliy maqsad qilingan. Shu bois ham, Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida so'nggi yillarda ijtimoiy institutlar yagona tizimini *shakllantirish*, platformaning samarali faoliyat ko'rsatishini *ta'minlash*, uzlusiz ta'lim tizimi samaradorligini *optimallashtirish*, yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib ma'naviy *tarbiyalash*, ham ichki, ham tashqi siyosatni davlatimiz, xalqimizning oliy manfaatlari, el-yurtimizning farovonligi va har bir fuqaro xavfsizligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida dunyohamjamiyatiga *tanishtirishga* qodir yuqori malakali kadrlarni **tayyorlash** masalasiga har qachongidan ham yuqori e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonining mohiyatini atroflicha anglab yetish har qanday kishilik jamiyati uchun o'ta muhim ahamiyatga ega hodisadir. Global muammolar va globallashuv jarayonlari asosan XX asrning mahsuli bo'lsa-da, «global» atamasi qadimdan fanda ma'lum. Globallashuv tushunchasi fransuzcha «global» so'zidan olingan bo'lib, eng umumiyligi, umumjahon, yer sharini qamrab oluvchi mazmunini anglatadi. Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy hududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o'ziga xos yana bir turi **axborot xavfsizligi** paydo bo'ldi. 36,7 millionlik mamlakatimiz aholisining 65 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Birgina, ochiq axborot tizimlarida yurtimizdagi 18-30 yosh oralig'ida bo'lgan 7-8 millionli axborot iste'molchilarining informatsion-psixologik xavfsizligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb talablaridan biri sifatida yaqqol namoyon bo'lib ulgurdi. Buning dolzarbliyi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarida yaqqol ko'rinoqda.

Globallashuv va integrasiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan "axborot" zamonaviy jahon bozori munosabatlarida o'zining munosib o'rniga ega bo'la boshladи. "Kim axborotga egalik qilsa, u dunyonи boshqaradi" qabilidagi fikrlarning bot-bot esga olinayotgani ham bejiz emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'shin soni, qurol-yarog' arsenali, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi. Globallashuv jarayonining yirik

nazariyotchilaridan biri Jorj Modelsking ta'biri bilan aytganda, «moziyda moddiy-materialistik mezonlar bo'yicha gegemonlik darajasi ayni shu mamlakatning kuchlilagini belgilar edi» [1].

Sivilizasiyalar silsilasida axborotning birlamchi ahamiyat kasb etishi uchun avvalo tezlikning ortishi evaziga masofani qisqartirishga erishish zarur edi. Bu yo'lda dastlab kompas qo'l keldi, so'ngra Morze teleografi, A.Bell ixtiro qilgan telefon, Popov tomonidan yaratilgan ilk radioqurilmadan foydalanildi. Televidenie va internet esa yuqoridagi maqsadga erishish uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ohib berdi. Tadqiqotchi V.N. Moshkin tili bilan aytganda, «yoshlarni axborotlar oqimidan asrashning yagona yo'li bu o'z vaqtida amalga oshirilgan pedagogik va psixologik ta'lmdir» [2].

Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, **axborot xavfsizligi** – aslida jamiyatning ob'ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali yoshlarga yetib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Aslida bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlarning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «**Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak**» [3].

NATIJALAR

Bugun mamlakatimizdagi mafkurachilar oldida turgan vazifalarning mazmuni va yo'nalishi aynan yurtboshimizning barkamol avlod tarbiyasi g'oyalaridan kelib chiqishi tabiiy. Xo'sh, bugun bizga aynan qanday yoshlar kerak? Savolning inson sifatlariga qaratilishi bevosita insonning xarakterologik sifatlarini nazarda tutadi. Lekin biz bir maqola doirasida barcha sifat hamda fazilatlarni sanab chiqish fikridan yiroqmiz. Biz e'tiborni shaxsda yaxlit ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi yetakchi, asosiy sifatlarga va ularning shakllanishi shart-sharoitlariga qaratmoqchimiz va bunda barkamollik fazilatlarini shakllantiruvchi ikkita asosiy bo'g'in – **oila** va **ta'lim muassasalarining** rolini ajratmoqchimiz.

Biz, globallashuv jarayonida shaxs, jumladan, yoshlar muammosiga qay tomondan yondashmaylik, u chuqur va keng qamrovli mulohazani talab etadigan voqeiylikdir. Ushbu maqolada

ilgari surilayotgan muammo predmetida shaxsni xoh **gumanistik**, xoh **psixologik** nuqtai nazaridan talqin qilmaylik, biz unga moddiy olamning bir bo‘lagi sifatida *ontopsixologik* nuqtai nazaridan yondashamiz. Agar “shaxs” tushunchasining tarkibiy belgilovchilarini umumlashtiradigan bo‘lsak, turli xil psixologik nazariyalar va ilmiy maktablar shaxsni doimiy o‘zgarib turuvchi muhitga moslashish natijasida rivojlanib boruvchi individ tavsifining *sintezi* sifatida qaraydilar. Shuningdek, individning xulq-atvoriga muvofiq atrof-muhit ta’sirini belgilovchi me’yorlar shakllanadi. Demak, shaxs hayoti davomida psixologik mazmun kasb etadigan nisbiy barqarorlikka ega bo‘lgan o‘zida *sub’ekt* bilan *ob’ektning* o‘zaro ta’sirini shakllantiruvchi motivatsiya hamda ehtiyojlar munosabati tizimini namoyon qiluvchi **ijtimoiy hosila** ekan.

Globallashuv – jamiyat taraqqiyotining integratsiyalanishi natijasida hamda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ekologik axborot tizimlarining rivojlanishi jarayonida yuzaga keladi. Ta’kidlash kerak, kommunikatsiya vositalaridagi tub o‘zgarishlar ham globallashuv jarayonining shiddat bilan rivojlanishini ta’minlamoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni ba’zi mamlakatlarning o‘z maqsad-iddaolarini amalga oshirishida ham qo‘l kelmoqda. Turli axborot yutuqlaridan foydalangan holda qadriyatlarimizga zid bo‘lgan tamoyillarni informatsion tajovuz qilish yo‘li bilan mamlakatimiz aholisi, jumladan, yoshlarimiz ongiga singdirishga harakat qilishmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, ayrim kuchlar tomonidan hozirda demokratiyani «eksport» qilish, uning qandaydir universal modelini joriy etish kabi tendensiyalar asnosida diniy ekstremistik g‘oyalar, xalqaro terrorizmni mamlakatimiz sarhadlariga kiritishga urinishlar mavjud. Aksariyat urinishlarning mohiyatini chuqurroq tahlil etadigan bo‘lsak, bunday harakatlar mazmunida yoshlarda avvalo fikr qaramligini, so‘ngra «etnotsentrizm» hissini shakllantirish yotganligini guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, xavfsizlikning asosiy sub’ektlaridan hisoblanmish **shaxs xavfsizligi** ijtimoiy-psixologik jihatlarining o‘rganilishi, xavfsizlikni ta’minlash borasida qanday ijtimoiy va psixologik ta’sirlarga e’tibor qaratish zarurligini anglashga imkon yaratadi.

Ba’zi hollarda globallashuv jarayoni axborot tajovuzini niqoblashda, uning mohiyatini jamoatchilikdan yashirishda o‘ziga xos mafkuraviy shakl vazifasini ham bajarmoqda. Xususan, globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo‘lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo‘ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o‘z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlar, nuktai-nazarlar, g‘oyalar, fikrlarni ilgari surmoqdalar. Natijada, har qanday

mahalliy hodisa yoki voqeal juda qisqa fursat ichida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida global hodisa yoki voqeaga aylanib ulgurmoqda. Bu vaziyatlar, o‘z navbatida, fojeali xarakterga ega bo‘lgan quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin: ijtimoiy aloqa doirasining torayishiga, qadriyatlar mazmunining o‘zgarishiga, faqat bugungi kun uchun yashab, istiqbolni o‘ylamaslikka, «Men» siyosining deformatsiyalashuviga, psixologik tushkunlikning yuzaga kelishiga (ichki beqarorlik, ichki ziddiyat, yolg‘izlik hissi, ijtimoiy qo‘rquv, shaxsiy xarakterining aksentuatsiyalashuvi). Ana shu jihatdan olib qaraganda ham dunyoning mafkuraviy manzarasida o‘ta muhim o‘rin egallab ulgurgan bu jarayonni, ya’ni kelajagimiz hisoblangan yoshlarimiz ongi-shuurini zabt etishga qaratilgan axborot tajovuzlarining mohiyatini oolib berishda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya katta amaliy ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Vatanga mehr, kelajakka ishonch, kasbga sadoqat kabi shaxs sifatlarining mavjudligi to‘g‘ri dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi. Yangicha fikrlash va tafakkur yuritish aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e’tiqoddir.

O‘spirinlik va yoshlik davrlari dunyoqarashlar tarbiyasi uchun eng sezgir, qulay, psixologik ibora bilan aytganda, **senzitiv** bo‘lgani uchun ham bu yo‘nalishda olib boriladigan ishlarimizni, «**Uzlucksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi**»ni, ya’ni ularda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish ishlarini izchil amalga oshirish bilan uyg‘un tarzda olib borilmoqda. Bunda 1994-yilda ishlab chiqilgan «**Oila-mahalla-ta’lim muassasasi**» hamkorligi konsepsiysi doirasida ushbu dasturni amaliyat tatbiq etish jarayonini sifatli amalga oshirish uchun milliy an’analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, mustaqil dunyoqarashga ega yuksak ma’naviyatli shaxslargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko‘rsata oladilar. Bunda, ota-onan madaniy saviyasining yuqori bo‘lishi ma’naviyati yuksak, ma’rifatli, iste’dodli, komil farzandlarni voyaga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘sha oladigan, ijtimoiy ongi shakllangan, milliy g‘ururi baland, oilaparvar, millati, xalqi va ona Vatanini ko‘z qorachig‘idek e’zozlashga qodir farzandlar bolalik yillarida avvalo oila muhitida munosib tarbiya olgan bo‘ladilar. Zero, ota-onan farzandlar uchun hamisha o‘rnak va namuna timsollaridir.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda oila mafkurasi, ma’naviyati va undagi ijtimoiy-psixologik muhit alohida amaliy

ahamiyatga egadir. Sababi, oila muqaddas maskan bo‘lib, unda bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanish so‘zsiz ota-onaning vazifasi hisoblansa, bunda oila boshliqlariga itoat, yuksak ehtirom ko‘rsatish esa farzandlarning burchi sanaladi. Mamlakatimiz yoshlarining ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirish jamiyatimizdagi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan vazifalardan biri bo‘lib, xilma-xil mafkuraviy kurashlar avj olgan hozirgi davr ota-onalar hamda ustoz-murabbiylardan turli buzg‘unchi oqimlar yoshlarni o‘z girdobiga tortmasligi uchun **shaxs tarbiyasida** hushyor va sergak turishni taqozo etmoqda. Zero, ayrim ota-onalar, ustoz-murabbiylarimizning loqaydligi-yu beg‘amligi haqida: «Kishining o‘z qaramog‘idagi kimsalarga beparvo bo‘lishi uning gunohkor ekanligiga kifoyadir», deya hadis-shariflarda ham eslatilgan. Bu birgina shaxs xavfsizligi doirasida namoyon bo‘ladigan holatlar bo‘lib, u jamiyat va davlat xavfsizligiga ham bevosita ta’sir o‘tkazadi. Fojeali holatlar doirasi kengayib, ta’sir ko‘rsatish darjasini kuchayishi mumkin. Chunki, barqarorlikning uchinchi darjasini (birinchisi – siyosiy boshqaruv, ikkinchisi – siyosiy tuzum) **shaxs xavfsizligining** ta’minlanganligidir. Aynan uchinchi daraja barqarorlikning ta’minlanganligini aniqlaydi, barqarorlikni davlat va jamiyat darajasida ta’minalashning galadagi vazifalarini belgilab beradi.

Bu esa globallashuv jarayonida shaxs xavfsizligining psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil etish uni ta’minalash borasidagi mavjud qarashlarni oydinlashtiradi. Jamiyatning muayyan sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf yoki tahdidlarni (siyosiy, psixologik, ma’naviy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, tibbiy, texnik va boshq.) aniqlash, ularni baholash uchun amaliy yordam beradi.

MUHOKAMA

Umuman olganda, ijtimoiy-psixologik jihatdan **shaxs xavfsizligi** hamda bu borada yuzaga keladigan (kelishi mumkin bo‘lgan) xavf-tahdidlar ichki va tashqi ta’sirlar vositasida paydo bo‘ladi, ularni quyidagicha qayd etish mumkin:

Birinchidan, shaxs xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muhit (turli favqulodda vaziyatlar, jinoiy muhit, ishsizlik va hokazo);

Ikkinchidan, shaxsnинг salbiy individual-psixologik xususiyatlari ta’sirlari asosida boshqalar uchun xavf tug‘dirish (telefon terrorizmi, sadizm, oldindan o‘ylanmagan tajovuzlar va hokazo);

Uchinchidan, shaxsnинг ijtimoiy-psixologik sifatlari (soddalik, ishonuvchanlik va b.q.) ta’sirida o‘zi uchun xavfni yuzaga keltirish (o‘z joniga qasd qilish, ba’zi destruktiv guruqlar aldonining qurbaniga aylanish va hokazo).

XULOSA

1) Ta'lim-tarbiya tizimi samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tub islohotlar mazmuni madaniyatli, yuksak ma'naviyatli, erkin fikrlovchi shaxsnii tarbiyalashga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, bugun yoshlarimiz o'zligini anglashi, teran dunyoqarashning shakllanishi va iymon-e'tiqod sohibi bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar va zamin tayyorlangan.

2) Hozirda butun «mafkurachilar armiyasi»ga uzluksiz ma'naviy tarbiya g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishdek oliyjanob vazifa yuklatilgan bo'lib, bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish Yangi O'zbekistonda milliy o'zlikni anglagan, betakror madaniyat va yuksak ma'naviyatning merosxo'rлari ekanligini teran anglaydigan yoshlarga – kelajagimiz vorislariga ega bo'lishimizga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.routledge.com/Globalization-as-Evolutionary-Process-Modeling-Global-Change/Modelski-Devezas-Thompson/p/book/9780415773614>
2. Мошкин В.Н. Воспитание культуры безопасности школьников. – Барнаул: Издательство БГПУ, 2002. – С. 66.
3. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
4. Karimova V.M., Hayitov O.E. (2002) Milliy o'zlik va shaxs tarbiyasi. Maktab va hayot, 3, 10–12.